

**MOLIYAVIY MENEJMENT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI**

**B.N.Muydinov, i.f.n.,dots.,**

*University of economics and pedagogy NOTM*

*O'quv ishlari bo'yicha prorektori,*

*Andijon Davlat Universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti,*

**N.I.Saidxodjayeva**

*University of economics and pedagogy NOTM*

*"Iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakat korxonalarining moliyaviy menejment tizimini rivojlantirish tamoyillari yoritilgan va tahlil qilingan. Korxonani o'zgartirish jarayonida o'zaro hamkorlik munosabatlariiga ega bo'lgan bir nechta xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, tovarlar, ishlari va xizmatlarni bir-biriga o'tkazish, kooperativ munosabatlarda bo'lib, yakuniy daromad va foydani bo'lishadi. Shunga o'xshash masalalar Respublikamizning oliy boshqaruvi organlarining tegishli me'yoriy hujjatlari orqali hal etilishini taqozo etadi. O'zbekistonda samarali boshqaruvi amaliyoti rivojlanish bosqichida bo'lib, ob'ektiv iqtisodiy qiyinchiliklar, qonunchilik bazasining nomukammalligi, mutaxassislar tayyorlash darajasining yetarli emasligi bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy menejment, iqtisodiy o'sish, moliyaviy resurs, makro iqtisodiyot, boshqaruvi samaradorligi.

**Аннотация.** В статье раскрыты и проанализированы принципы развития системы финансового управления предприятий страны. В процессе изменения предприятия несколько хозяйствующих субъектов, имеющих отношения взаимного сотрудничества, передают друг другу товары, работы и услуги, находятся в кооперативных отношениях, и конечный доход и прибыль (добавленная) будет (стоимость) вступает в четкие отношения владения. Подобные вопросы должны быть решены соответствующими нормативными документами высших органов управления нашей Республики. Практика эффективного управления в Узбекистане находится на стадии развития и сталкивается с проблемами, связанными с объективными экономическими трудностями, несовершенством законодательной базы, недостаточным уровнем подготовки специалистов.

**Ключевые слова:** финансовый менеджмент, экономический рост, финансовые ресурсы, макроэкономика, эффективность управления.

**Abstract.** The article explains and analyzes the principles of the development of the financial management system of the country's enterprises. In the process of changing the enterprise, several business entities with cooperation relations, transfer

*goods, works and services to each other, are in cooperative relations, and the final income and profit enter into a clear possession relationship. Similar issues need to be resolved by the relevant normative documents of the higher administrative bodies of our Republic. Effective management practice in Uzbekistan is at the stage of development, and it faces problems related to objective economic difficulties, imperfection of the legal framework, and insufficient training of specialists.*

**Keywords:** financial management, economic growth, financial resources, macroeconomics, management efficiency.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng tadbirkorlik va korxonalarini boshqarish usullari o‘zgara boshladi. Ular korporativ boshqaruv modellarini joriy etishning iqtisodiy jihatlariga, aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) faoliyatini samarali boshqarish tizimini shakllantirish, boshqaruv tamoyillari, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarga e’tibor qarata boshladilar. Iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qodir bo‘lgan ko‘p bosqichli iqtisodiyot va raqobat muhitini shakllantirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi. O‘tish davridagi islohotchi mamlakatlar tajribasi tasdiqlaydiki, ma’muriy rejali iqtisodiyotdan iqtisodiyotni boshqarishning bozor modeliga uyg‘un o‘tishning muhim vositasi xususiyashtirish bo‘lib, bu real mulkdorlar sinfi va korporativ boshqaruvning samarali usullari shakllanishiga olib keladi. Xususiyashtirilgan mulkni boshqarishda moliyaviy menejment alohida ahamiyatga ega.

### **ADABIY TAHLIL VA METODOLIKA**

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni, xavfsizlik va huquq-tartibotni mustahkamlash, mamlakatimiz sarhadlari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, inson manfaatlarini ta’minlashning muhim poydevoriga aylandi. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhiti xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Moliyaviy menejmentni o‘rganishda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish borasida olimlar tomonidan turli ta’rif va qarashlar mavjud. E.Sheremet, A.F.Ionovlarning fikricha, moliyaviy menejment - pul muomalasini, aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanishni boshqarishdir<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>[Илеремет А.Д., Ионова А.Ф.](#) Учебное пособие Финансовый менеджмент-1 Институт профессиональных бухгалтеров России (Информационное агентство «ИПБ –БИНФА») 2005 г. Ст 449

A. N. Gavrilova moliyaviy menejment - ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun boshqaruvning yangi tamoyillari, shakllari, tuzilmalari va usullarini doimiy joriy etish orqali moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan tijorat aktsiyadorlik jamiyatining moliyaviy boshqaruv tizimi ekanligini ta'kidladi<sup>2</sup>. Yu.I. Shoxina moliyaviy menejmentni jamiyat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish orqali moliya fondlari va aktsiyadorlar tomonidan qo‘yilgan strategik maqsad va taktik vazifalarni hal etish yo‘llarini o‘rganuvchi fan sifatida belgilaydi<sup>3</sup>.

S.V.Galiskaya talqinida moliyaviy menejment korxona aktivlarini va ularning shakllanish manbalarini boshqarish sifatida belgilanadi<sup>4</sup>.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bizning fikrimizcha, moliyaviy menejment – bu aksiyadorlik jamiyatlarining strategik va taktik maqsadlariga erishish uchun moliyaviy resurslarning eng oqilona manbalarini jalb qilish va ulardan eng yuqori samaradorlik bilan foydalanish yo‘li bilan aksiyadorlik jamiyatlarining pul oqimlarini boshqarish fani va san’atidir. Moliyaviy menejment mazmuni uning mohiyatidan ancha kengroq tushunchadir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qiymat qonuni tartibga soluvchi rol o‘ynaydi va moliyaviy munosabatlarni aksiyadorlik jamiyatlarida butun ishlab chiqarish jarayonini, shu jumladan, barcha iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Shuning uchun moliyaviy menejment aksiyadorlik jamiyatining umumiyligi boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Moliyaviy menejment - foydani maksimal darajada oshirish bir vaqtning o‘zida butun boshqaruv tizimining, shu jumladan, texnik va ishlab chiqarishni boshqarishning maqsadi hisoblanadi.

Ushbu sohaga oid manbalarni o‘rganish natijasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yirik korxonalarini tarkibiy qayta qurish yo‘li bilan ko‘plab muammolarni hal qilish mumkinligi isbotlangan.

Turli xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda, uning faoliyatini o‘zgartirishga quyidagicha yondashish mumkin:

Birinchi bosqich. Korxonani kompleks tekshirish, unga quyidagilar kiradi:

- korxonaning umumiyligi tavsifi, uning tashkiliy tuzilishi va boshqaruv tizimi;

- korxona mulkini aniqlash, korxonaning asosiy fondlari holatini inventarizatsiya qilish va ulardan foydalanish samaradorligini aniqlash;

- korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish;

- iqtisodiy faoliyat xarajatlarini o‘rganish (rentabellik darajasini tahlil qilish);

- uning iqtidorli imkoniyatlarini zaxira va mehnat salohiyati nuqtai nazaridan o‘rganish.

<sup>2</sup> Финансовый менеджмент - Гаврилова А.Н., Сысоева Е.Ф. - 2008г.

<sup>3</sup> Финансовый менеджмент - Е. И. Шохин – Учебник ФБК-ПРЕСС 2004 г.

<sup>4</sup> С. В. Галицкая "Финансовый менеджмент. Финансовый анализ. Финансы предприятий" 2009 г.

Ikkinchchi bosqich. Raqobat muhitini va kompaniyaning mahsulot bozorlaridagi o'rnnini tahlil qilish va baholash, jumladan:

- mahsulot bo'yicha marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- korporativ marketing sohasidagi tadqiqotlar.

Uchinchchi bosqich. Korxonani rivojlantirish strategiyasini va uni moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha biznes-rejani ishlab chiqish, unga quyidagilar kiradi:

- korxonani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish;
- korxona faoliyati strategiyasini shakllantirish (ishlab chiqarish turlari, ta'minot va sotish, ishlab chiqarish va texnologik, narx, moliyaviy, investitsion, kadrlar va boshqa siyosatlar);
- tashkiliy va boshqaruv tizimini shakllantirish;
- islohot jarayonini rejalashtirish va boshqarish.

Bu ishlarning birinchi bosqichini amalga oshirishda asosiy ijrochilar sifatida auditorlar ishtirok etadilar. Ularning vazifasi xizmat ko'rsatuvchi korxonaning moliyaviy hisobotlari undagi real vaziyatni qanchalik to'g'ri aks ettirganligini aniqlashdan iborat. Har bir yechim turi o'ziga xos ma'lumot va tahliliy yordamni talab qiladi.

Prognozlash va rejalashtirish qarorlari istiqbolli va trend tahlili usullaridan foydalangan holda bir necha yil yoki chorak uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarga asoslanadi. Iqtisodiy faoliyatning borishini tartibga soluvchi qarorlar tezkor tahlil usullaridan foydalangan holda operativ, shu jumladan, buxgalteriya hisobi va ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilinadi. Hisoblash va nazorat qilish qarorlari retrospektiv, joriy tahlil usullaridan foydalangan holda joriy hisobot davri uchun haqiqiy va rejalashtirilgan (prognoz) ma'lumotlarni taqqoslash asosida qabul qilinadi.

Zamonaviy moliyaviy menejmentning mazmuni moliyaviy tahlil usullarini chuqurlashtirish va O'zbekiston Respublikasining bozor sharoitiga o'tishi bilan bog'liq yangi muammolarni hal qilish bilan tavsiflanadi. Bunday vazifalarga, masalan, daromad va kapitalni diskontlash, kapital qiymatini aniqlash orqali kapital tarkibini boshqarish, iqtisodiy diagnostika usullaridan foydalanish qobiliyati, moliyaviy risklarni boshqarish, moliyaviy leveraj samaradorligi va boshqalar kiritiladi. Ularni amaliy boshqaruvda hal qilish masalasi ko'rib chiqiladi. Aktsiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga hizmat qiladi.

Moliyaviy menejment aktsiyadorlik jamiyat umumiyligi boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo'lib, u aktsiyadorlik jamiyatlarining xo'jalik faoliyatini moliyalashtirish jarayonini, shu jumladan, moliyaviy resurslar harakati, harakat paytida yuzaga keladigan moliyaviy resurslar va moliyaviy resurslarni shakllantirish jarayonini oqilona boshqarish tizimidir. Bundan kelib chiqqan holda, moliyaviy menejmentni kapitaldan oqilona va samarali foydalanish tizimi, kapitalni ko'paytirish, investitsiyalar va moliyaviy resurslarni ko'paytirishga qaratilgan moliyaviy resurslar

harakatini boshqarish mexanizmi sifatida tavsiflash mumkin. Moliyaviy menejment moliyaviy resurslarning normal aylanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularning samaradorligi aylanish tezligi (operatsiya tezligi) bilan tavsiflanadi.

Moliyaviy boshqaruvning ustuvor maqsadi mulk egasining iqtisodiy samaradorligini maksimal darajada oshirishdir. Bu maqsadga erishish mexanizmlari samarali dividend va investitsiya siyosati, aksiyadorlik jamiyatining kredit siyosati, yetarli likvidlik va optimal aylanma mablag'lar siyosati, soliq solinadigan bazani optimal shakllantirish siyosatidir. Moliyaviy menejmentning ikkinchi maqsadi asosiy maqsadni to'ldiradi va aniqlaydi. Uning mazmun-mohiyati korxonalarda mijozlar va kreditorlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan samarali ishbilarmonlik hamkorligini yo'lga qo'yishdan iborat bo'lib, ushbu korxona ishini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ishbilarmonlik hamkorligining samaradorligini ta'minlash mexanizmi tomonlarning o'zaro munosabatlariga, investitsiya qilingan mablag'larning to'liq qaytarilishi va muddatini nazorat qilish, qarz miqdori, asosiy qarzdorga kafolatlari, garov, ijara, savdo kreditlari va bank xizmatlarini taqdim etishning samarali sxemasiga asoslanadi. Obligatsiya ssudasi shartlarini asoslash, moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ijobiy samarasini ta'minlash va boshqalar muhim rol o'ynaydi.

Navbatdagi maqsadimiz – korxonaning ijtimoiy mas'uliyatini ta'minlash. Fond bozorida kompaniyaning ishtiroki uning tadbirkorlik faoliyati barqarorligiga, soliq solinadigan bazaning kengayishiga, aholi bandligini oshirishga, ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talabning oshishiga, bozor ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro bog'liq va o'zaro bog'liq bo'limgan tijorat munosabatlarini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Mamlakat ichidagi va xorijdagi aloqalar qo'llab-quvvatlash uchun yaxshi istiqbollarni yaratadi. Iqtisodiy va moliyaviy o'sish, ijtimoiy rejalashtirish, inson kapitaliga investitsiyalar, ehtimoliy bankrotlik monitoringi, shuningdek, biznes qarorlariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bilan moliyani boshqarishning maqsadlari ham o'zgaradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, moliyaviy menejmentning maqsadi maksimal foyda olishdir. Biroq, aktsiyadorlik jamiyatining bozor qiymatini maksimal darajada oshirish har doim ham u oladigan foyda miqdorini ko'paytirish orqali avtomatik ravishda amalga oshirilmaydi. Masalan, olingan yuqori foyda to'liq joriy maqsadlarga sarflanishi mumkin, buning natijasida kompaniyalar rivojlanish uchun asosiy moliyaviy resurslardan mahrum bo'ladi.

Bundan tashqari, moliyaviy tavakkalchilikning yuqori darajasida yuqori darajadagi foydaga erishish mumkin, bu esa kompaniyalarning bozor qiymatining pasayishini oqlashi mumkin.

Korxonani o'zgartirish (qayta qurish) bo'yicha ishlar faqat korxona mutaxassislari va tegishli bozor infratuzilmasi ishtirokida amalga oshirilishi mumkin va o'zgartirish (qayta qurish) dasturini ishlab chiqish natijasida nafaqat iqtisodiyot, balki korxonaning

ijtimoiy va ma'naviy holati yaxshilanadi. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonani takomillashtiradi, yo'nalishlar belgilanadi. Korxonalarni o'zgartirish ishlab chiqaruvchilar va ularning mahsulotidan foydalanuvchi, ya'ni mehnat taqsimoti va xizmatlarning ixtisoslashuvini ta'minlovchi iste'molchilar manfaatlarini hisobga oladigan yagona konsepsiya doirasida amalga oshirilishi kerak. Hududlarda transformatsiya jarayonlarini rivojlantirish "Transformatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash dasturi"ga kiritilgan maxsus ishlanmalarga asoslanishi kerak.

### XULOSA

Kompaniyalarni o'zgartirish jarayonida o'zaro hamkorlik munosabatlariiga ega bo'lgan bir nechta xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, masalan, xom ashyo, resurslar, tovarlar, ishlar va xizmatlarni bir-biriga o'tkazish kabi kooperativ munosabatlarda bo'lib, yakuniy daromad, foya va rentabellikni oshirish maqsadida moliyaviy munosabatlarga kirishadi. Binobarin, har bir tuman hokimligi mazkur hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan iqtisodiyotning tayanch korxonalari uchun o'zining mehnat faoliyatini doimiy monitoringini olib borishi lozim, chunki transformatsiya jarayonlari yiliga to'rt marta sodir bo'ladi, bu hatto mavsumda ham barqarorlik garovidir. Bu va shunga o'xshash masalalar Respublikamizning oliy boshqaruv organlarining tegishli me'yoriy hujjatlari orqali hal etilishini taqozo etadi.

O'zbekistonda samarali boshqaruv amaliyoti rivojlanish bosqichida bo'lib, ob'ektiv iqtisodiy qiyinchiliklar va muammolarga duch kelmoqda. Zamonaviy iqtisodiyot quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- xususiyashtirilgan kompaniyalarni ustav kapitalining past darajasi;
- moliyaviy resurslarning narxi;
- kompaniyalarning past investitsion jozibadorligi;
- fond bozori va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanmaganligi.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy menejmentni rivojlantirish iqtisodiyotidagi o'zgarishlarning tendentsiyalari va holatini ko'rib chiqish ushbu yo'nalish nafaqat ma'lum an'analarga, balki kelajakda ham yorqin istiqbolga ega bo'ladi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

### Foydalaniman adabiyotlar ro'yxat:

1. Шеремет А.Д., Ионова А.Ф. Учебное пособие Финансовый менеджмент-1 Институт профессиональных бухгалтеров России (Информационное агентство «ИПБ –БИНФА») 2005 г. Ст 449
2. Финансовый менеджмент - Гаврилова А.Н., Сысоева Е.Ф. - 2008г.
3. Финансовый менеджмент - Е. И. Шохин – Учебник ФБК-ПРЕСС 2004 г.
4. С. В. Галицкая "Финансовый менеджмент. Финансовый анализ. Финансы предприятий" 2009 г.
5. Menejment. Darslik - N.K. Yo'ldoshev, G.E. Zaxidov. -Toshkent: « 0 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 392 b.

6. Menejment. O‘quv qo‘llanma. N.M.Ziyaviddinova, Y.M.O‘rinov, Sh.N.Xayitov - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T.: «Tafakkur-Bo‘stoni», 2012-yil, 312 bet.
7. A.G.Ibragimov, Z.R.Madaminova, M.E.Raxmataliyev. Moliyaviy menejment. - T.:«Barkamol fayz media», 2016, 232 bet.

